



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



2018 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 41 239,2 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 53,6 %i jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 46,4 %i moliyalashtirildi.






Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 32,7 %i korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 18,8 %, to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 12,1 %, aholi mablag`lari 13,6 %,

Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 7,5 %, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 8,8 %, Respublika byudjeti 3,4 % va Davlat maqsadli jamg`armalari 3,1 % va Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 0,02 % asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mlrd.so`m	o`shish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	41 239,2	113,4	100,0
Republika byudjeti	1413,7	76,2	3,4
Davlat maqsadli jamg`armalari	1281,2	112,4	3,1
Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi	6,9	16,3	0,02
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	3077,7	111,6	7,5
O`zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	3619,3	2,7 m	8,8
Korhona mablag`lari	13503,0	124,8	32,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	7748,1	170,7	18,8
To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4976,2	62,1	12,1
Aholi mablag`i	5613,1	98,4	13,6

Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari: keltirish mumkin: "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), "Muruntau" karyerini qayta ishlash, (V – navbat), sement zavodi qurilishi, "Yoshlik 1" konini o`zlashtirish, sement zavodi qurilishi, zamonaviy samalyot sotib olinishi va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan bajarilayotgan yirik investitsiya


loyihalari: 450 MVt quvvatli 2 bug`-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostansiyasi qurilishi, ammiak va karbamid ishlab chiqarishini tashkil etish, Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi va boshqalar.

Tijorat banklari kreditlari hisobidan shahar joylarda turar joylar qurilishiga investitsiyalar jadal o`zlashtirilmoqda.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish suratlari



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi bo`yicha o`tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o`shish surati 2,3 marta ko`payish Navoiy viloyatida kuzatildi. Bu asosan qimmatli metal konlarini ozlashtirish bo`yicha investitsiyalar bilan bog`liq. Namangan viloyatining o`tgan yilning mos davriga nisbatan 133,4 % o`shishi asosan To`raqo`rg`on tumanida issiqlik elektr stansiyasi qurilish bilan bog`liq. Surxondaryo viloyatida ham yuqori o`shish kuzatilib, ushbu hududdagi yirik investitsiya loyihalaridan Sherobod tumanida


sement zavodining qurilishini keltirish mumkin. Toshkent viloyatida ham yuqori o`shish surati 147,8 % kuzatilib, bu hududda Yoshlik 1 konini o`zlashtirish bo`yicha investitsiyalarning jadal o`zlashtirilayotgani bilan bog`lash mumkin.

Buxoro viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o`tgan yilga nisbatan keskin tushishi - 59,1 %. Bu albatta o`tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilishi bo`yicha investitsiyalarning katta bo`lgani bilan izohlanadi.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

Respublikadagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,3 %i o'zlashtirildi.

Shuningdek Buxoro viloyatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan tushish kuzatilgan bo'lsada, investitsiyalar hajmi bo'yicha Respublikadagi ulushi Toshkent


shahridan keyingi o'rinda 11,0 % ni tashkil etmoqda.

Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 10,2 va 10,7 %ni tashkil etdi.

Xorazm hamda Jizzax viloyatlarida investitsiyalarning Respublikadagi ulushi 2,8 va 3,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryoda bu ko'rsatkich bo'yicha eng kama bo'ldi – 1,8 %.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 22 321,0 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 14 014,7 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 4 903,5 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Hududlar kesimda texnologik tarkibi





Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 24 324,5 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 59,0 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 9 216,1 mlrd.so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 22,3 %ini tashkil etdi. Qolgan 18,7 %,

yani 7 688,6 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.


Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Buxoro viloyatida kuzatilib, u 79,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, Samarqand viloyatida 77,5 %, Surxondaryoda 74,2 %, Navoiyda 73,2 % va Namanganda 70,6 %ni tashkil etdi.

Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Toshkent shahrida kuzatilib, u 38,1 %ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 9 592,5 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 23,3 %i o`zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 1 985,2 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi

ulushi 4,8 %);

- metallurgiya sanoati 1 662,7 mlrd.so`m (4,0 %);

- to`qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 1 652,1 mlrd.so`m (4,0 %).

Tog`-kon sanoatida 6 522,2 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,8 %i o`zlashtirildi. Shundan

5 137,8 mlrd.so`m yoki jami investitsiyalarning 12,5 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo`naltirilgan.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd.so`m

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
O`zbekiston Respublikasi	8 595,5	4 646,9	3 948,6	4 976,2	4 646,9	329,3
Qoraqalpog`iston Respublikasi	273,6	239,5	33,1	239,5	239,5	-
viloyatlar:						
Andijon	290,9	264,4	26,5	264,4	264,4	-
Buxoro	2 488,8	2 426,6	62,2	2 426,6	2 426,6	-
Jizzax	120,9	106,4	14,5	106,4	106,4	-
Qashqadaryo	729,1	468,6	260,5	468,6	468,6	-
Navoiy	1 988,5	51,6	1 936,9	85,0	51,6	33,4
Namangan	715,5	79,1	636,4	79,1	79,1	-
Samarqand	55,3	20,0	35,3	20,0	20,0	-
Surhondaryo	194,6	17,0	177,6	17,0	17,0	-
Sirdaryo	85,8	21,5	64,3	21,5	21,5	-
Toshkent	337,8	133,5	204,3	173,4	133,5	39,9
Farg`ona	121,4	31,2	90,2	36,0	31,2	4,8
Xorazm	81,5	9,0	72,6	9,0	9,0	-
Toshkent sh.	1 111,8	778,6	333,2	1 029,8	778,6	251,2



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar (davomi)



Joriy davrda 8 595,5 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,9 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 4 646,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 3 948,6 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan - to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 4 976,2 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lib, undan 93,4 %i yoki 4 646,9 mlrd.so`m investitsiyalar va qolgan 6,6 %i yoki 329,2

mlrd.so`m kreditlarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`ngan yilning mos davriga nisbatan o`sinh surati 91,7 %ni tashkil etdi. Ushbu ko`rsatkichni hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Navoiy viloyatida qayd etilganini ko`rish mumkin. Ushbu hududda u 7,5 marttaga ko`paygan.


Eng past o`sinh surati Buxoro viloyatida kuzatilib, u o`ngan yilning mos davriga nisbatan bor yo`g`i 41,2 %ni tashkil etdi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Respublikadagi ulushi, %da:



Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog`-kon sanoatida o`zlashtirilib, u 3 104,2 mlrd. so`mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 36,1 %ni tashkil etdi. Bu Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi bilan bog`liq.


Hajm jihatidan keyingi o`rinni qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha 2 679,6 mlrd.so`m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 31,2 %i

o`zlashtirildi.

Elektr, gaz bilan ta`minlash faoliyati bo'yicha 1 293,2 mlrd. so`m xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilgan bo`lib, ular asosan yuqorida keltirib o`tilganidek 450 MVt quvvatli 2 bug`-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari hisobidan ta`minlandi.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 5 402,4 ming kv.m, bo`lgan 34 343 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 3 678,7 ming kv.m. bo`lgan 24 481 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 311,2 ming kv.m. 3 088 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan

bo`lsak, eng ko`pi Buxoro viloyatida ishga tushirilgan 670,2 ming kv.m. va u Respublika bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,4 %ini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Toshkent viloyati Qashqadaryo viloyatlari egallagan bo`lib, Respublika bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 8 %idan tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Sirdaryo viloyatida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 0,5 %ni tshkil etdi.




Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

Sogʻliqni saqlash sohasiga oid obyektlar boʻyicha jami 160 oʻrinli kasalxonalar, 1000 qatnovga moʻljallangan ambulator

poliklinikalar, taʼlim sohasida 820 oʻquvchi oʻrniga moʻljallangan umumtaʼlim maktablari ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylar



Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun masʼul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56